



O'ZBEKISTONDA ARAB TILI VA ADABIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI

Fathiddin Muhammadjonov

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti
kafedrasi lingvistika yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shunday bo'lsada, sohada tizimli chora-tadbirlar asosida yechilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolar bugungi kunda tegishli takliflar ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Kalit so'zlar: arab tili, metod, ta'lim markazlari, arab adabiyoti, xorijiy tajriba, tarjimashunoslik, reyting, ilmiy hamkorlik, talaba almashinuvi.

Abstract: In our country, serious attention is paid to the educational system of teaching foreign languages. In recent years, a lot of work has been done in the framework of the development of foreign language teaching. Nevertheless, there are problems in the field that need to be solved on the basis of systematic measures, and these problems require the development of appropriate proposals today.

Key words: Arabic language, method, educational centers, arabic literature, foreign experience, translation studies, rating, scientific cooperation, student exchange.

Аннотация: В нашей стране серьезное внимание уделяется образовательной системе преподавания иностранных языков. За последние годы проделана большая работа в рамках развития преподавания иностранных языков. Тем не менее, в сфере существуют проблемы, которые необходимо решать на основе системных мер, и эти проблемы требуют разработки соответствующих предложений уже сегодня.

Ключевые слова: арабский язык, методика, образовательные центры, арабская литература, зарубежный опыт, переводоведение, рейтинг, научное сотрудничество, обмен студентами.

Asosiy qism.

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirishga qaratilgan tizimli olib borilayotgan ishlar natijasida misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yil 6-may kuni Prezidentimiz boshchiligidagi o'tkazilgan kengaytirilgan selektor yig'ilishida bir qator muhim yangiliklar e'lon qilindi. Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyati haqida

Prezidentimiz: "Agentlik, eng avvalo, dunyoda samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarini bog'cha, maktab, litsey, oliygoh va o'quv markazlarida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishga ko'maklashadi. Bunda, ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini o'rgatishni tashkillashtiradi"- deya ta'kidladilar. Ushbu ko'zda tutilgan 10 ta tilning bir qanchasi sharq tillari hisoblanadi. O'zbekistondagi ta'lim maskanlariga xorijlik o'qituvchilarning jalb qilinishi tezlashtirildi. 2022-yildan ishga qabul qilinayotgan chet tili o'qituvchilaridan milliy va xalqaro sertifikatiga ega bo'lish talab etilmoqda. Ushbu yig'ilishda JIDUda BMT bilan hamkorlikda Chet tillarini chuqur o'rgatish markazi tashkil etilishi ma'lum qilinib, markaz faoliyati samarali tashkil etildi. Chet tilida efirga uzatiladigan teleradiokanallar faoliyati yo'lga qo'yildi. Magistratura va doktoranturaga kirishda chet tilini bilish sertifikati talab etilishi belgilab qo'yildi. Chet tillar bo'yicha qabullar soni ikki baravarga, davlat granti esa uch baravarga oshirildi. Davlat idoralariga ishga qabul qilish va yangi lavozimga tayinlashda xorijiy tilni bilish majburiy etib belgilandi. Viloyat va mamlakatimizning barcha tuman-shaharlarida o'ndan ziyod chet tilini o'rgatish topshirig'i tegishli mas'ullarga yuklatildi. Mamlakatimiz boshqa davlatlar bilan hamkorlik doiralarini kengaytirar ekan, xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib boraveradi. So'nggi yillarda yurtimizda arab davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar rivojlanib bormoqda. Ushbu mamlakatlardan investitsiya jalb qilinishi va diplomatik aloqalarning o'sishi yangi bosqichga olib chiqildi. Tabiiyki, ushbu davlatlar bilan aloqalar rivojlanar ekan, xorijiy hamkorlar tilini o'rganish, chuqur o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishdagi muammolarni tahlil etish, samarali yechim berish masalasi dolzarb masala hisoblanadi. Shu jumladan, ushbu maqolada yurtimizda xorijiy tillarni o'zlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarga hissa qo'shish maqsadida O'zbekistonda arab tili va adabiyotining dolzarb muammolari atroflicha o'rganilib, zarur bo'lgan yechimlar taqdim etishga harakat qilinadi. O'zbekistonda, avvalo, quyidagi mavjud muammolarni tahlil etish, muammolarning tub mohiyatini anglash zarur:

Birinchidan, arab tili adabiyoti va tarjimashunoslik sohalari bo'yicha talabalar almashinuvining keng qamrovda amalga oshirilmayotganligi. Oxirgi yillarda, Misr Arab Respublikasi, Ummon sultonligi, Saudiya Arabistoni va yana bir qator xorijiy universitetlar bilan aloqalar o'rnatilgan bo'lsada, umumiy tahsil olayotgan talabalar nisbatiga juda kam hisoblanadi. Buning uchun, talabalar almashinuvi dasturlarini ishlab chiqish, mavjudlarini kengaytirish, hamkorlik memorandumlarini imzolash maqsadga muvofiq. Ushbu jarayon arab tilini mukammal o'zlashtirish bilan birga, talabalarga o'rganilayotgan til madaniyatini yaxshi anglashga, geografik joylashuvi, iqtisodiyoti bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

Ikkinchidan, Mamlakatimizda arab tili adabiyoti va unga doir yo'nalishlarda ta'lim beriladigan universitet va o'quv dargohlariaro talabalar almashinuv dasturlarining mutlaqo mavjud emasligi. O'zbekistonda arab tili o'qitiladigan



oliygohlar soni o'nga yaqinlashsada, ushbu yo'nalishda o'qiyotgan talabalarning bir necha yil davomida boshqa muqobil ta'lim muassasasiga borib o'qish imkoniyati yaratilmagan. Lekin, so'nggi paytlarda oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga o'tishi bilan ushbu masala bartaraf etilishi osonlashadi. O'quv dasturlari muvofiqlashtiriladi. Natijada, talabalar uchun boshqa universitet ta'lim tizimi qanday tashkil etilishidan xabardor bo'lish, talaba almashinuvining kengayishi natijasida dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Uchinchidan, soha bo'yicha xorijiy professor-o'qituvchilarning kamligi. Tan olish kerakki, xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish bo'yicha O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetlari yillar davomida o'ziga xos tajribaga ega bo'ldi. Lekin, Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education, Academic Ranking of World Universities kabi nufuzli agentliklar reytingida mingtalik ro'yxatni band etgan oliygohlarning barchasida bir kafedrada xorijiy professor-o'qituvchilar soni ma'lum miqdorda yetarli bo'lishi belgilab qo'yilgan. Moliyaviy mustaqillikka erishgan universitetlar o'z jamg'armalari hisobidan, davlat universitetlari oliy ta'limni rivojlantirish jamg'armalari mablag'lari hisobidan qoplagan holda ushbu masalani jiddiy ko'rib chiqish vaqti keldi. Zero, xorijning ilg'or tajribalaridan foydalanar ekanmiz bu ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

To'rtinchidan, mavjud arab tili yo'nalishlarida talabalarning tor doiradagi mutaxassisliklar asosida ta'lim olmasliklari. Dunyo rivojlangan sari mutaxassisliklar tor doirada ixtisoslashib borayotgani barchamizga ma'lum. Filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar arab tilini umumiy o'rganish bilan kifoyalanadilar. Ammo, xorij universitetlari yo'nalishni allaqachon tarmoqlarga bo'lib o'rgatishni yo'lga qo'yg'alar. Masalan, arab tilining tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik, sinxron tarjima yo'nalishlarini siyosiy-ijtimoiy tarjima, diniy tarjima, badiiy tarjima, harbiy-texnikaviy tarjima kabi bir qator yo'nalishlarga bo'lib o'qitish mumkin. Bu o'rganuvchining o'zi istagan sohasida yaxshi ta'lim olishiga, chuqurroq o'zlashtirishiga, yuqorida sanab o'tilgan sohalarda malakali kadrlar yetishib chiqishiga sabab bo'ladi.

Beshinchidan, arab tili va adabiyoti bo'yicha mavjud o'quv-qo'llanmalarning yetarli emasligi. Zamon rivojlangan sari yangi metodlar asosida yozilgan o'quvdarslik va qo'llanmalarga ehtiyoj tug'ilishi tabiiy jarayondir. Afsuski, bu borada O'zbekiston arabshunoslari ulkan ishlarni amalga oshirishlari, olib borilayotgan ilmiy faoliyatlarini jadallashtirishlari zarur. Arab tili bo'yicha to'rtta: Gapirish (التحدث), tinglab tushunish (الاستماع), o'qib tushunish (القراءة), yozish (الكتابة), grammatika (النحو), balog'at (البلاغة) kompetensiyalarini qamrab olgan darslik mavjud emas. Faqatgina 2021-yilda O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi professori Doktor Ubayd Muhammad Abdulhalimning ushbu kompetensiyalarni qamrab oluvchi "Al-kamil" (كتاب الكامل) kitobining A1, A2, B1, B2 silsilalari nashr etildi. Hozirgi paytda arab tilini o'rganish uchun mo'ljallangan O'zbekistonda nashr etilgan innovatsion o'quv-qo'llanmalar soni nihoyatda kam. Arab adabiyoti

esa o'zbek tilida yozilgan qo'llanmalar asosida o'qitilmoqda. Bu esa o'rganuvchilarning bevosita tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyotini o'zlashtirishga to'siq bo'lmoqda. Arab bo'lmagan til o'rganuvchilar (الغير الناطقين بها) uchun adabiyot darsliklarini ko'paytirish lozim. Qolaversa, arab adabiyoti darsida arab yozuvchilarining durdona asarlarini o'z tilida o'qitish choralari ko'rish, o'rganuvchilarning badiiy namunalarni qiynalmay o'qiy olish kompetensiyasini rivojlantirishga erishish darkor. Yetishmayotgan darsliklar muammosiga yechim sifatida Oliy ta'lim vazirligi va universitetlarning ilmiy kengashlari tomonidan eng yaxshi arab tili darsligi uchun grantlar e'lon qilib, mualliflar yoki hammualliflar uchun moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Arab adabiyoti bo'yicha yetishmayotgan darslik va o'quv-qo'llanmalarni Misr Arab Respublikasining hamkor, nufuzli oliygohlarida o'qitilayotgan darsliklarni amaliyotga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Oltinchidan, arab adabiyoti bo'yicha mutaxassis kadrlarning yetishmasligi. O'zbekistonda arab adabiyoti bo'yicha malakali kadrlar zahirasi ishlab chiqilishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki, kadr yetishmasligi sabab bir oliygohda dars berayotgan professor-o'qituvchilar boshqasida ham ishlashga majbur bo'ladilar. Imkon qadar arab adabiyoti darslarini xorijlik professor-o'qituvchilar o'tishi maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, asl mutaxassis o'z tilining badiiy bo'yoqdorligi va nafis jihatlarini mukammal ochib bera oladi. Bu bo'lsa fanni puxta o'zlashtirilishiga olib keladi.

Yettinchidan, chet tilini bilish darajasini aniqlash xalqaro va milliy test tizimlarini oliygohning ichki imtihonlarida tan olinganlik maqomini berish. Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan magistratura va doktoranturaga kirish imtihonlarida chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini talab etilishi belgilandi. Bunga qo'shimcha ravishda tibbiyot yo'nalishida o'qiyotgan talabalar chet tilini bilish sertifikatini qo'lga kiritishda rag'batlantirish tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimni boshqa yo'nalishlar jumladan, arab tiliga doir sohalarda ham qo'llash, yuqori natija bilan til bilish sertifikatini qo'lga kiritgan talabalarni mutaxassislik fanidan oraliq, yakuniy va davlat imtihonlaridan ozod etish, to'lov shartnoma mablag'laridan imtiyozlar berish talabalar orasida arab tili o'rganilishini yanada tezlashtiradi.

Sakkizinchidan, o'quv jarayonlarini tashkil etishda samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash va amaliyotga tatbiq etish. Hammamizga ma'lumki, Finlandiya, Janubiy Koreya, Shvetsariya va yana bir qancha ta'lim tizimi kuchli rivojlangan davlatlar bunday muvaffaqiyatli natijaga ta'limning ilg'or metodlarini ishlab chiqib, hamda uni amaliyotga tatbiq etib erishdilar. Arab tili o'qitishda zamonaviy uslublarni qo'llash ancha oqsamoqda. Xususan, arab tili ta'limida nahv (grammatika) va sarf (morfologiya) qoidalarini quruq yodlash va o'rganish bilan cheklanilib qolinmoqda. Ta'limning amaliy shakllarini qo'llash uchun har bir oliygohlardan professor-o'qituvchilarni Misr, Qatar, Quvayt, Ummon Sultonligi kabi mamlakatlarning arab bo'lmaganlar uchun til o'qitishga mo'ljallangan malaka oshirish kurslariga yo'naltirish yoki krepeduz kabi xolis faoliyat yuritayotgan dasturlar va ijtimoiy tarmoqlar xizmatidan foydalanish muammoning yechimi bo'lib xizmat qiladi.



Xulosa.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yaqin kelajakda xorijiy tillarni o‘rganish hukumat va vatandoshlar, ilm egalari, olimlarning diqqat markazida bo‘lib boradi. Dunyo bir-biriga tobora bog‘liq bo‘lib borayotgan bir sharoitda iqtisodiy hamkorlik, tashqi aloqalar va mamlakatlarning turli maqsadlarda o‘zaro hamkorliklari xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish va uni egallashga bo‘lgan talabni yanada kuchaytiradi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalining 1913-yilgi 1-sonida Turkistonliklarga ikki til emas, balki to‘rt tilni bilish lozimdir degan edi. Bugun shiddat bilan ketayotgan davr jadid bobomizning fikrlari naqadar o‘rinli ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Oyna” jurnali 1913-yil 1-son 12-14-betlar.
2. 5000 words in a month. Yangi assotsatsiyali lug‘at. elektron kitob.
3. Ubayd Muhammad Abdulhalim. Kitab al-kamil. – Toshkent: “Hilol nashr nashriyoti, 2021
4. www.daryo.uz
5. www.qalampir.uz
6. www.kun.uz
7. <https://t.me/krepeduz>
8. www.iiu.uz